

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY TA'MINOTINI**  
**BOSHQARISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Abduboqiyev Muxammad Sharofitdinovich**

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minotini boshqarish va  
samaradorligini oshirish yo'llari..... 3

**Абдубокиев Мухаммад Шарофитдинович**

Эффективное управление и пути повышения эффективности  
финансового обеспечения акционерных обществ..... 33

**Abdubokiev Mukhammad Sharofitdinovich**

Effective management and ways to improve the efficiency of financial  
support of joint-stock companies..... 63

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 67

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIYAVIY TA'MINOTINI**  
**BOSHQARISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt4051 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirildi.

**Ilmiy rahbar:**

**Burxanov Aktam Usmanovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudoyqulov Xurshid Xurramovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Alladustov Rustam Djonmurotovich**

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya aftoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reysr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat va moliyaviy-iqtisodiy globallashuv sharoitida investitsiyalarga bo'lgan talab oshib bormoqda. "2024-yilda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan iqtisodiy-siyosiy muammolarga qaramasdan, jahonning yetakchi kompaniyalari tomonidan moliyalashtirish va kapitalizatsiya hajmini oshirishga erishildi. Hisobot yilida barqaror investitsiya mahsulotlari, jumladan obligatsiyalar va fondlar qiymati 20 foizga oshib, 7 trillion AQSh dollariga yetdi. Moliyalashtirishning obligatsiyalar ko'rinishidagi shakli bo'yicha emissiya hajmi 3 foizga oshib, 872 milliard dollarga yetdi va jahon bozorning umumiy qiymati 4 trillion dollardan oshdi"<sup>1</sup>. Albatta moliyalashtirishning o'sish tendensiyalari asosan iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda jahon kapital bozoridagi prognozlarning mavhumligicha saqlanib qolayotganligi sharoitida iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar tomonidan moliyalashtirishning muqobil variantlarini izlab topish hamda mavjud moliyaviy resurslardan optimal foydalanishga doir qarorlar qabul qilish dolzarb masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

Xalqaro amaliyotda korporativ tuzilmalarning moliyaviy ta'minot manbalarini optimallashtirish, moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlarini joriy etish, moliyaviy resurslar samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish orqali kapital bozorini rivojlantirish masalasi ko'plab moliyaviy ekspertlar va jahondagi yetakchi kompaniyalarning asosiy mavzularidan biriga aylanib ulgurdi. Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda kompaniyalar faoliyatini moliyalashtirishda xalqaro moliya bozorlari alohida o'rin egallaydi. Kompaniyalar tomonidan moliyaviy ta'minot manbalarini samarali boshqarish ularning istiqboldagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim vazifalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan kompaniyalarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish, jahon bozoridagi yetakchi investitsion sohalarga kirib borishda ilmiy-innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish, moliyalashtirishning yangi va qulay usullarini joriy etish, davlat va korporativ tuzilmalarning moliyaviy munosabatlarini rivojlantirish, moliyalashtirish faoliyatida istiqbolli samaradorlik ko'rsatkichlarini ekonometrik tahlil qilish asosida prognozlashtirish amaliyotini takomillashtirish kabi masalalar ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini tashkil etmoqda.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, har qanday iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar amaliyotida kompaniyalar moliyaviy ta'minot masalasi uning istiqboldagi rivojlanish va xalqaro hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishdagi muhim omillardan biri sanaladi. Keyingi yillarda O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida zamonaviy

---

<sup>1</sup> [https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024\\_overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_overview_ru.pdf)

xalqaro standartlarni joriy etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilayabdi hamda qonunchilik hujjatlari mustahkamlanmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida “iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish” asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat iqtisodiyot real sektori aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, qarorlar qabul qilishda moliyaviy texnologiyalarni tadbiq etishni jadallashtirish, moliyaviy ta‘minot manbalarini diversifikatsiya qilish, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning xalqaro standartlarini milliy standartlarga muvofiqlashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son «Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son «Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-son «Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 15-sentyabrdagi PQ-3277-son «O‘zmetkombinat» AJ boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son «2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2020-yil 9-dekabrdagi 775-son «Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta‘minotini boshqarish va samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Aksiyadorlik kompaniyalarida moliyalashtirishga doir muammolar va ularning yechimlari, moliyaviy ta‘minotni mustahkamlashda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirishga doir mamlakatimiz va xorijiy yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, S.Ross, Yu.Brighem, A.Damodaran, L.Gapenski, I.A.Blank, I.Ya.Lukasevich, I.V.Sergeyev, G.B.Polyak, S.V.Galitskaya, S.Ye.Kovan, V.V.Kovalyev,

V.V.Bikovskiy, N.V.Martinova, T.V.Teplovalarni keltirish mumkin.<sup>2</sup> Olimlar tomonidan zamonaviy moliyaviy boshqaruvning fundamental nazariyalarini o'rganish bilan birga kompaniyalarning moliyaviy ta'minotni mustahkamlash, ularni shakllantirish manbalarini diversifikatsiyalash, moliyaviy resurslarni boshqarish algoritmini ekonometrik modellashtirish kabi tadqiqotlar o'rganilgan va xulosalar taqdim etilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham keyingi yillarda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minot manbalarini samarali boshqarish va zamonaviy moliyaviy boshqaruv asoslarini tashkil etishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, M.B.Xamidulin, R.X.Karlibayeva, A.U.Burxanov, M.P.Eshov, O.N.Xamdamov, X.X.Xudoyqulov, R.R.Abduraupov, N.A.Sherqo'ziyeva, N.R.Tursunova, A.A.Shomirov, O.Sh.Kuvatova, D.B.Begmatova, M.N.Raxmedova, A.M.Boboqulov va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.<sup>3</sup>

---

<sup>2</sup> Stephen A.Ross The arbitrage theory of capital asset pricing. Journal of economic theory 13, 1973; Ю.Бригхем, Л. Гапенски. Финансовый менеджмент. В двух томах. «Экономическая школа» Санкт-Петербург 2001 – 497 стр.; Damodaran, A. Valuation approaches and metrics: A survey of the theory and evidence. Foundations and Trends in Finance Volume 1, Issue 8, 2007, Pages 693-784; Fundamentals of financial management/James C.Van Horne, John M.Wachowicz. – 13th ed. Prentice Hall, 2009 y. p. 27.; Ross, Stephen A, Fundamentals of corporate finance. 6th edition. North Ryde, NSW McGraw-Hill Education (Australia), 2014.- p 756.; L. Fung. Financial management. University of London 2015 y, p. 9; C.Paramasivan, T.Subramanian. Financial management. New age international Publishers – 2009 y., p. 19; Бригхем Ю., Гапенски Л. Финансовый менеджмент. В двух томах. Санкт-Петербург «Экономическая школа» 2001 – 497 стр; Бланк И.А. Финансовый менеджмент. Киев, Эльга Ника-Центр. 2004 – 655 стр.; Лукасевич И.Я. Финансовый менеджмент: 3-е изд., испр. –М.: Эксмо, 2011. – 768 с.; Сергеев И.В. Экономика организаци (предприятия): – 3-е изд. – М.: Финансы и статистика, 2008 – 576 стр.; Под ред. Поляка Г.Б. Финансовый менеджмент. – 2-е изд. – М.: ЮНИТИ-ДАНА – 2008 – 527 стр.; Галицкая С.В. Финансовый менеджмент. Финансовый анализ. Финансы предприятий: – М.: Эксмо, 2009-652 стр.; Ковалев В.В. Финансовый менеджмент: теория и практика. -3-е изд., перераб. и доп.-М.: «Проспект», 2016.-1104 с.; Ковалев В.В., Ковалев Вит.В. Финансы организаций (предприятий): – М.: ТК Велби, Изд-во «Проспект», 2006-352 стр.; Кован С.Е. Теория антикризисного управления предприятием: учебное пособие – М.: КНОРУС, 2009-160 стр.; В.В. Быковский, Н.В. Мартынова. Технологии финансового менеджмента: Издательство «Тамбовского государственного технического университета», 2008. – Ч. 1. – 80 с; Теплова Т.В. Корпоративные финансы: учебник и практикум для академического бакалавриата. – М.: Издательство «Юрайт», 2016 – 655 с.

<sup>3</sup> Хамидулин М.Б. Развитие финансового механизма корпоративного управления: автореферат дисс...д.э.н. – Ташкент, 2008.– с.12.; Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo'llari: diss. avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2018. – 14 b.; Burxanov A.U. Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot Monografiya – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2019. 160 b; Eshov M.P. Korxonaning fundamental qiymatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish: diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2020. – 14 b.; Xamdamov O.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimi metodologik asoslarini takomillashtirish diss. avtoreferati. DSc – Toshkent, 2023. – 32 b.; Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish: DSc – Toshkent, 2021. – 17 b.; Abduraupov R.R. O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: diss. avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2016. – 23 b.; Sherkuziyeva N.A. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini optimallashtirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2021. – 18 b.; Tursunova N.R. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etish yo'llari: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2019. – 15 b.; Shomirov A.A. Aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari: diss. avtoreferati. PhD – Toshkent, 2019. – 21 b.; Begmatova D.B. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish. Iqt. fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...avtoref. – T., 2017.; М.Н.Рахмедова Совершенствование операций с еврооблигациями как инструмента привлечения иностранных инвестиций. Монография – «Иктисод-молия», 2023 – 100 с.; O.Sh.Kuvatova Aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari. PhD – Toshkent, 2024. – 24 b.; A.M.Boboqulov Iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyatini muqobil moliyalashtirishni takomillashtirish. PhD – Toshkent, 2023. – 24 b.

M.Eshov va X.Xudoyqulovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar kapital qiymatini baholash asosida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ baholash amaliyotini tashkil etishga qaratilgan. O.Xamdammov aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment mexanizmini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirgan. A.A.Shomirov tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa, N.A.Sherqoziyeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini ta'minlashda dividend siyosatini rivojlantirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan. O.Kuvatova tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining FM-1-raqamli "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minot manbalarini diversifikatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minot manbalari va ularni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etish;

moliyaviy ta'minotni o'z va qarz mablag'lari hisobiga shakllantirishning tashkiliy asoslarini o'rganish va asosiy farqli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish;

moliyaviy ta'minotni mustahkamlashda xorijiy kapitalni jalb etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati faoliyati va uni rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish asosida moliyaviy faoliyatni rivojlantirishga doir ilmiy takliflarni shakllantirish;

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati investitsion faoliyati va investitsion qarorlar qabul amaliyotini tahlil qilish asosida xulosalarni shakllantirish;

moliyaviy ta'minotni samarali boshqarishga doir xorijiy davlatlar tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini belgilash;

moliyaviy ta'minotni boshqarishda o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirishga doir xulosalarni shakllantirishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati va boshqa aksiyadorlik jamiyatlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** moliyaviy ta'minot manbalarini shakllantirish va samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada umumlashtirish, guruhlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, dinamikada o'rganish, istiqbolli prognozlashtirish,



induksiya va deduksiya, korrelyatsion-regression tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

moliyaviy risklarni kamaytirishga qaratilgan “Konsolidasiyalashgan ishonchli moliyalashtirish” usuli yuqori daromad olish imkonini beruvchi loyihalar, aksiya va obligatsiyalarni emissiya qilish hamda imtiyozli xorijiy kredit liniyalarini o‘zlashtirish orqali ko‘p sonli mayda investorlar, kompaniya va moliya tashkilotlari bilan birgalikda moliyalashtirishga jalb qilish asosida takomillashtirilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan korporativ obligatsiyalarni emissiya qilish va investorlarning qat’iy foiz to‘lovlarini ixtiyoriy, imtiyozli foizlarda, kompaniya aksiya va obligatsiyalariga ayirboshlash imkoniyatini beruvchi obligatsiyalarni muomalaga kiritish orqali moliyalashtirishning nobank modelidan samarali foydalanish hamda qo‘shimcha investorlarni jalb qilish taklifi asoslangan;

ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimida oshkoralikni ta’minlash, mas’uliyatlilik va hisobdorlik, barqaror va manfaatdor hamkorlik aloqalarini ta’minlash kabi prinsiplarni joriy etish asosida yangi UCGS (Uzbek Corporate Governance System) korporativ boshqaruv tizimini joriy etish orqali tashqi va ichki boshqaruvni samarali tashkil etish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital qo‘yilmalarining CAPEX (capital expenditure) va daromadlar hajmi o‘zgarishlarini 2030-yilga qadar uzoq va qisqa muddatlarda baholovchi “Profitable forecasting” deb nomlanuvchi yuqori ko‘rsatkichli prognozlash parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarida qarz yoki o‘z mablag‘lari manbalari bo‘yicha samaradorlikka erishish, manbalarning iqtisodiy rentabelligidan kelib chiqqan holda optimal nisbatni shakllantirishga doir taklifi asoslangan

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta’minot manbalarini diversifikatsiyalashda xalqaro amaliyot tajribalaridan samarali foydalanishga doir takliflari ishlab chiqilgan;

iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar va yirik moliyaviy markazlarning moliyaviy ta’minotni mustahkamlashga doir tajribalarini tadqiq etish asosida amaliyotga foydalanishga doir ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy resurslar ta’minotiga doir risklarni minimallashtirishda derivativlardan foydalanishning ilmiy asoslarini yanada kengaytirishga doir tavsiyalari asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xususiy investitsiya fondlari bilan moliyaviy munosabatlarni yanada takomillashtirish orqali ikki tomonlama moliyaviy barqarorlikni oshirish imkoniyatlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta’minotni samarali boshqarishning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot mualliflarining ilmiy qarashlarini o‘rganish, xorijiy davlatlarning sohaga oid ilg‘or tajribasini tadqiq etish, ekspert baholash natijalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi,

Toshkent RFB, Markaziy bank, O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasi, Davlat statistika agentligi, aksiyadorlik jamiyatlarining rasmiy manbalaridan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarning aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni samarali boshqarish va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni samarali tashkil etishning konseptual asoslari, moliyalashtirishning zamonaviy yondashuvlari va modellarini ishlab chiqishda va qo'llashda, bu borada amalga oshirilayotgan maxsus tadqiqot ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ta'minot manbalarini diversifikatsiya qilish, qo'shimcha moliyaviy instrumentlardan foydalanish orqali moliyaviy ta'minotni mustahkamlash, xususiy va qarz manbalari hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, xorijiy tajribalardan samarali foydalanish orqali milliy amaliyotga tadbiiq etish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni samarali boshqarish va tashkil etish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

moliyaviy risklarni kamaytirishga qaratilgan "Konsolidatsiyalashgan ishonchli moliyalashtirish" usulini yuqori daromad olish imkonini beruvchi loyihalar, aksiya va obligatsiyalarni emissiya qilish hamda imtiyozli xorijiy kredit liniyalarini o'zlashtirish orqali ko'p sonli mayda investorlar, kompaniya va moliya tashkilotlari bilan birgalikda moliyalashtirish asosida takomillashtirishga doir taklifi "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining investitsiyalari va kreditlarini o'zlashtirish bo'yicha prognoz va maqsadli parametrlarini ishlab chiqishda foydalanilgan ("O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi №01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023-2025 yillarda tarmoqlar va hududlar kesimida investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishning maqsadli ko'rsatkichlarni ishlab chiqishda foydalanilgan hamda aksiyadorlik jamiyati tomonidan mazkur yillar mobaynida 318,9 mln AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb qilish, pirovardida esa 550 ta yangi ish o'rinlarini yaratishga doir prognozlari asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan korporativ obligatsiyalarni emissiya qilish va investorlarning qat'iy foiz to'lovlarini ixtiyoriy, imtiyozli foizlarda, kompaniya aksiya va obligatsiyalariga ayirboshlash imkoniyatini beruvchi obligatsiyalarni muomalaga kiritish orqali moliyalashtirishning nobank modelidan samarali foydalanish hamda qo'shimcha investorlarni jalb qilish taklifi "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi № 01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning

amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining nominal qiymati 5 million so‘m bo‘lgan 10 000 dona jami 50 milliard so‘mlik korporativ obligatsiyalari savdo auksionlari NEGO savdo maydonchasida o‘tkazilgan bo‘lib, potensial xaridorlardan 478,5 milliard so‘mlik arizalar kelib tushgan, hamda savdo yakunlari bo‘yicha jami 50 milliard so‘mlik obligatsiyalarni fond bozoriga muvaffaqiyatli joylashtirishga erishilgan;

ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimida oshkoralikni ta'minlash, mas'uliyatlilik va hisobdorlik, barqaror va manfa'atdor hamkorlik aloqalarini ta'minlash kabi prinsiplarni joriy etish asosida yangi UCGS (Uzbek Corporate Governance System) korporativ boshqaruv tizimini joriy etish orqali tashqi va ichki boshqaruvni samarali tashkil etishga doir taklifi “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi №01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur'atlarini ta'minlash, jamiyatni boshqarish tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, shu jumladan, yangi bozorlarni egallash hisobidan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilish hajmini oshirish, mahsulotning tannarxini tushirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni tizimli asosda olib borishga erishilgan;

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari kapital qo‘yilmalarining CAPEX (capital expenditure) va daromadlar hajmi o‘zgarishlarini 2030-yilga qadar uzoq va qisqa muddatlarda baholovchi “Profitable forecasting” deb nomlanuvchi yuqori ko‘rsatkichli prognozlash parametrlari “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 1-maydagi №01/01-01-01/1329-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining CAPEX va daromadlar hajmini prognozlash yondashuvlariga muvofiq CAPEX miqdori 6,44 foizga o‘sishi va daromadlar xajmi 13,52 tlrn. so‘mni tashkil etishligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan: 3 ta xorijiy, 2 ta xalqaro, 3 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 125 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob'ekt va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aks ettirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **«Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ta'minotni tashkil etishning nazariy va tashkiliy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minot manbalari va ularni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini, moliyaviy ta'minot manbalarini boshqarishga doir iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlarning bayoni, o'z va qarz mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minot manbalarini shakllantirishning tashkiliy jihatlarini hamda moliyaviy ta'minotni mustahkamlashda xorijiy kapitalni jalb etishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan. Tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda nazariy natija va xulosalar shakllantirilgan.

Har qanday davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida moliyaviy mablag'larning va ularning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, davlatchilikni tashkil etish va yuritishning asosiy vazifalaridan biri ham aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda munosib turmush tarzini yaratib berish hisoblanadi. Davlatning o'z oldida turgan bu kabi va boshqa dolzarb vazifalarni hal qilishda shakllangan byudjet mablag'laridan tashqari ichki va tashqi qarzlariga bo'lgan talabi shakllanib boradi. Davlat tomonidan bu kabi qarz mablag'laridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda davlatning ichki va tashqi qarz mablag'laridan samarali foydalangan holda samarali ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi siyosatni yuritilishi bevosita davlat tomonidan qarz mablag'larini boshqarishning ilmiy-fundamental, qonunchilik va xalqaro amaliyot tajribalaridan qay darajada foydalanilishi va rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Aksariyat iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar amaliyotini tahlil qilar ekanmiz kompaniya moliyaviy resurslari o'nlab yillar davomida muhokama qilinadigan dolzarb masala bo'lib kelgan. Kompaniyaning asosiy g'oyalari va yangitdan faoliyatini tashkil etishdagi asosiy muammolardan biri ham moliyaviy resurslarni qaysi manbalar hisobiga shakllantirish va o'z vaqtida qaytarish hisoblanadi.

Qolaversa, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni prognoz qilishning murakkablashib borayotganligi, kompaniyalar oldida turgan muhim vazifalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Olimlar tomonidan berilgan tarifda kompaniya moliyaviy ta'minotidan samarali foydalanishda tashqi omillarni prognoz qilishni murakkabligi va mazkur jarayonda kapitaldan foydalanish yuqori rentabellikka olib kelish ustuvor vazifa sifatida belgilanishi qayd etilgan.



### 1-rasm. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyalashtirish manbalari<sup>4</sup>

Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyaviy ta'minot manbalari va ularning zaruratiga doir quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

moliyaviy ta'minot korxonaning asosiy va har qanday investitsion faoliyatini amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi;

moliyaviy ta'minot o'z va qarz mablag'lari hisobiga shakllantirilib ularning optimal miqdori korxonaning moliyaviy resurslardan foydalanish siyosatiga bog'liq hisoblanadi;

moliyaviy ta'minotdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini yuqori ekanligi korxonani moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga strategik maqsadlarga erishishda muhim o'rin egallaydi.

Aksariyat iqtisodchi olimlarimiz ham o'z tadqiqotlarida moliyaviy ta'minot boshqaruvi va undan foydalanish samaradorligini oshirishga doir tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ular tomonidan mavzuga doir yondashuvlar shakllantirilgan. Muallifning fikricha, kompaniyaning moliyaviy ta'minot samadorligini oshirish bilan bir qatorda investorlar uchun yuqori miqdorda foydani ta'minlashda bugungi kunda jahon amaliyotda keng qo'llanilayotgan usullardan kapital aktivlarni baholash, kapitalni rentabellik darajasini aniqlash va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlagan holda moliyaviy ta'minotdan

<sup>4</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan


foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida bugungi kunda xorijiy tadqiqotlardan samarali foydalanish natijasida moliyaviy ta'minotning samaradorligi darajasi yuqori bo'ladi va kutilayotgan daromadni olish va belgilangan maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Moliyaviy ta'minotni boshqarish va samaradorligini oshirishning amaldagi holati tahlili (“O‘zmetkombinat” AJ misolida)”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati faoliyati va uni rivojlanish tendensiyalarining tahlil qilingan. Tahlil jarayonida jamiyatni rivojlanish tendensiyalari, xalqaro kapital bozorining ishtirokchisiga aylanish jarayonlari, moliyaviy ko‘rsatkichlari va ularni o‘zgarish omillari o‘rganilgan. Shuningdek, “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining investitsion faoliyati tahlil qilingan hamda investitsion qarorlar qabul amaliyoti bilan tanishib chiqilgan. Jamiyatning kapital bozoridagi faoliyatini tahlil qilish asosida kapital samaradorligini oshirishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hamda, mamlakatimizning eng yirik va faol aksiyadorlik jamiyatlari hisoblangan “Olmaliq KMK” AJ, va “QIZILQUMSEMENT” aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy tahlili qilinib, qiyoslovchi tahlillar natijalaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizdagi barcha aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ta'minotini boshqarish va samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati (“O‘zmetkombinat” AJ) Markaziy Osiyoda qora metallurgiya sanoati to‘ng‘ichi va mamlakatimizda navli prokat mahsulotlari hamda po‘lat zoldirlar ishlab chiqaruvchi yirik korxona hisoblanadi. O‘zbekistondagi eng ko‘p soliq to‘lovchi korxonalarning 10 taligidan joy olgan “O‘zmetkombinat” AJda bugungi kunda 100 turdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Ular jumlasiga qora va rangli metal mahsulotlari, qurilish materiallari va keng turdagi xalq iste'mol mollari kiradi.

2022-yilda kompaniya aktivlari 2021-yilga nisbatan 80,31 foizga oshib 7,98 trln.so‘mni tashkil etdi. Ta'kidlash lozimki, aktivlar xajmini o‘shirishga kompaniya tomonidan amalga oshirilgan aktivlarni modernizatsiyalash va transformatsiyalash borasida ishlarni natijalarni misol qilib keltirib mumkin. Bu o‘z navbatida kompaniyaning istiqbolli moliyaviy natijalarini barqarorlash va moliyaviy majburiyatlarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Shuningdek, 2022-yil oxirida uzoq muddatli aktivlar jami aktivlarning 25,58 foizini yoki 2,04 trln so‘m (2020 yilga nisbatan 21,68 foizga ko‘p) va aylanma mablag‘lar 74,42% yoki 5,94 trln so‘mni (+80,31%) tashkil etdi (2-rasm).

2022-yil oxirida kompaniyaning inventarizatsiyasi 2,04 trln.so‘mni tashkil etdi, bu esa joriy yil boshiga nisbatan 116,11 foizga ko‘pdir. Kompaniyaning debitorlik qarzi 2,61 trillion so‘mni tashkil etib, o‘sdi yil boshiga nisbatan 66,76% ga. “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 2021-yil yakuniga ko‘ra 3,10 trln. so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 71,28 foizga ko‘p demakdir.



## 2-rasm. «O‘zmetkombinat» aksiyadorlik jamiyati asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi (trln.so‘m)<sup>5</sup>

Shu bilan birga, kompaniya ustav kapitalining 74,44 foizi yoki 2,30 trln so‘m (+130,03%) yillar davomida to‘plangan taqsimlanmagan foydadan iborat. 2022-yil yakuni bo‘yicha “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati majburiyatlari miqdori 4,87 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2021-yilning mos davriga nisbatan 86,56 foizga ko‘pni tashkil etgan. Kompaniya majburiyatlari umumiy hajmining 28,26% yoki 1,38 trln so‘m (+5,04%) uzoq muddatli bank kreditlari, qolgan 71,74 foizi yoki 3,50 trln. so‘m (+168,70%) (shundan 724,74 mlrd. so‘mi qisqa muddatli bank kreditlaridir) qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, kompaniyaning sof majburiyatlari 2021-yilda 2,81 trillion so‘mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 25,73 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatga mo‘ljallangan eng yirik loyihalaridan biri Quyma-prokat kompleksini ishga tushirish bo‘lib dastlabki prognozlarga ko‘ra loyihadan foydalanish muddati 2025-yil qilib belgilangan. Kompaniyaning debitorlik qarzi 2,61 trillion so‘mni tashkil etib, o‘sdii yil boshiga nisbatan 66,76% ga. “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 2021-yil yakuniga ko‘ra 3,10 trln. so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020 yilga nisbatan 71,28 foizga ko‘p demakdir. Shu bilan birga, kompaniya ustav kapitalining 74,44 foizi yoki 2,30 trln so‘m (+130,03%) yillar davomida to‘plangan taqsimlanmagan foydadan iborat. 2022-yil yakuni bo‘yicha “O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati majburiyatlari miqdori 4,87 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2021 yilning mos davriga nisbatan 86,56 foizga ko‘pni tashkil etgan.

<sup>5</sup>«O‘zmetkombinat» aksiyadorlik jamiyatining yillik moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**1-jadval**

**“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatini 2021-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsion loyihalari to‘g‘risidagi ma‘lumot (mlrd. so‘m)<sup>6</sup>**

Loyihaning nomi	Loyihaning umumiy qiymati	Moliyalashtirish manbalari	
		O‘z mablag‘lari	Qarz mablag‘lari
<b>Quyma va prokat majmuasini qurish</b>	<b>3472,10</b>	<b>285,80</b>	<b>3186,30</b>
<b>Metallurgiya uskunalarini yangilash, shu jumladan:</b>	<b>42,32</b>	<b>42,13</b>	<b>0,19</b>
Po‘lat tegirmon ustaxonasi uchun rulon shakllantirish mashinasi	10,04	10,0	0,04
Ko‘p funktsional CNC silliqdash mashinasi	5,80	5,78	0,02
ZSX Primus IV to‘lqinli dispersli rentgen-lyuminescent qurilma	4,81	4,80	0,01
10 tonnalik portalli kran sotib olish	4,0	4,0	-
5 o‘qli gorizontal frezalash ishlov berish markazi	3,50	3,45	0,05
Markaziy laboratoriya ustaxonasi uchun optik emissiya spektrometri	2,74	2,70	0,04
Boshqalar	11,43	11,40	0,03
<b>Avtotransport parkini yangilash:</b>	<b>11,90</b>	<b>11,82</b>	<b>0,08</b>
Paletli ekskavator	2,0	2,0	-
Lonking rusumli old yuklagich	1,60	1,60	-
G‘ildirakli mini ekskavator EW60C	1,50	1,50	-
G‘ildirakli ekskavator gidravlik bolg‘a bilan	1,50	1,50	-
Isuzu FVR 33 P (CNG)	1,50	1,46	0,04
Boshqalar	3,80	3,76	0,04
<b>Boshqa investitsion loyihalar:</b>	<b>187,64</b>	<b>187,51</b>	<b>0,13</b>
Bekobod sh. Muz arenasi qurish	46,0	46,0	-
ESPC ishlab chiqarish quvvatini 1,1 million tonnagacha oshirish	34,50	34,50	-
SPV-1 uchun 3-sonli pechning qurilishi	35,0	34,96	0,04
4-sonli yangi ShPS liniyasini qurish	22,54	22,50	0,04
Yuqori chidamli koks ishlab chiqarish	11,50	11,47	0,03
Boshqalar	38,10	38,08	0,02
<b>3713,96</b>	<b>527,26</b>	<b>3186,7</b>	

Kompaniya majburiyatlari umumiy hajmining 28,26% yoki 1,38 trln so‘m (+5,04%) uzoq muddatli bank kreditlari, qolgan 71,74 foizi yoki 3,50 trln. so‘m

<sup>6</sup> <https://old.uzbeksteel.uz/Korporativ-Boshqaruv/Malumatnioshkorqilish/1252> - ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



(+168,70%) (shundan 724,74 mlrd. so‘mi qisqa muddatli bank kreditlaridir) qisqa muddatli majburiyatlar hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, kompaniyaning sof majburiyatlari 2021-yilda 2,81 trillion so‘mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 25,73 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.

“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatga mo‘ljallangan eng yirik loyihalaridan biri Quyma-prokat kompleksini ishga tushirish bo‘lib dastlabki prognozlarga ko‘ra loyihadan foydalanish muddati 2025-yil qilib belgilangan. Majmuaning umumiy maydoni 15,5 gektar bo‘lib loyihaning umumiy qiymati 672 mln. yevro hisoblanadi, agar bugungi kunda kompaning kapitallashuvi 360 mln. dollarni tashkil etilayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur loyihani to‘liq ishga tushirilishi natijasida kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlari va salohiyati ikki barobarga oshishini tahmin qilin qiyin emas. Mazkur loyihaning moliyalashtirish manbalari hususida fikrlarimizni davom ettiradigan bo‘lsak, loyiha ikki manba hisobiga ya’ni qarz mablag‘lari 419 mln. yevro va o‘z mablag‘lari 253 mln. yevroni tashkil etmoqda (1-jadval).

2-jadvalda tanlangan loyihalar uchun matritsali yechimlar keltirilgan bo‘lib, bunda i - qator i varianti uchun vektor mezonining qiymatlariga mos keladi, ya’ni  $f(x_i)$ .

## 2-jadval

### Tanlangan investitsiya loyihalari uchun matritsali yechimlar<sup>7</sup>

<i>Investitsion loyihalar</i>	<i><math>f_1 - NPV</math>, mln.so‘mda</i>	<i><math>f_2 - IRR</math>, %</i>	<i><math>f_3 - PP</math>, yil</i>	<i><math>f_4 - PI</math></i>	<i><math>f_5 - NFV</math>, mln.so‘mda</i>
1-loyiha	14200	23,5	2,5	1,1	123540
2-loyiha	11200	19,7	1,3	1	97440
3-loyiha	15600	27,1	4,5	1,9	135720
4-loyiha	10104	25,7	3,5	1	87904,8
5-loyiha	17200	23,1	3,2	1	149640
6-loyiha	21300	27,4	3,8	1,3	185310
7-loyiha	15060	17,6	3,5	1,2	131022
8-loyiha	16200	20,7	2,8	1	140940
9-loyiha	12900	18,5	2,9	1,1	112230
10-loyiha	10809	23,9	1,9	1,5	94038,3

Keyingi bosqichda investitsion loyihalar bo‘yicha optimal variantlar  $M_p$  ni ajratish hisoblanadi, ular ketma-ket saralash variantlari va vektor mezonining qiymatlarini juftlik bilan taqqoslashga asoslangan. Masalan, 1-loyiha uchinchi loyihaga nisbatan samaradorligi yuqori, ya’ni  $f_j(x_1) \leq f_j(x_3)$ ,  $j = (1,5)^-$  bo‘lganligi uchun  $x_1 > x_3$  bo‘ladi. Shuning uchun qolgan loyihalar bo‘yicha ham quyidagicha ifodalash mumkin bo‘ladi:

$$x_2 > x_3, x_4 > x_6, x_5 > x_6, x_7 > x_6, x_8 > x_6, x_9 > x_6, x_{10} > x_6, x_2 > x_1, x_8 > x_5$$

Shunday qilib, quyidagi variantlardan iborat ko‘plab samarali echimlar aniqlandi:

$$M_p = \{x_2, x_4, x_7, x_8, x_9, x_{10}\}.$$

<sup>7</sup> Muallif tomonidan hisoblandi.

Yuqoridagilar asosida yechimlarning tegishli matritsasi quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Qayd etish lozimki, 3-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlarni vektor mezon bo'yicha bir-biri bilan solishtirish mumkin emas. Variantlarni har juftlik taqqoslash shuni ko'rsatadiki, bularning orasida bittadan ko'rsatkich qolganlariga nisbatan samarali yoki yuqori rentabellikka ega bo'lib qaror qabul qilishda alohida ahamiyat qaratish kerak.

**3-jadval**

**Investitsion loyihalarning samarali yechimlari matritsasi**

<i>Investitsion loyihalar</i>	<i><math>f_1 - NPV</math>, mln.so'mda</i>	<i><math>f_2 - IRR</math>, %</i>	<i><math>f_3 - PP</math>, yil</i>	<i><math>f_4 - PI</math></i>	<i><math>f_5 - NFV</math>, mln.so'mda</i>
2-loyiha	11200	19,7	1,3	1	97440
4-loyiha	10104	25,7	3,5	1	87904,8
7-loyiha	15060	17,6	3,5	1,2	131022
8-loyiha	16200	20,7	2,8	1	140940
9-loyiha	12900	18,5	2,9	1,1	112230
10-loyiha	10809	23,9	1,9	1,5	94038,3

Birinchi bosqich. Kerakli darajalar vektori quyidagicha berilgan

$$\tilde{f} = \tilde{f}_1, \tilde{f}_2, \dots, \tilde{f}_5$$

Faraz qilaylik, u  $f^0$  vektori bilan aniqlangan bo'lib, uning har bir komponenti tegishli lokal mezonning minimaliga mos keladi., ya'ni  $\tilde{f} = f^0$ . Biz tadqiq etayotgan aksiyadorlik jamiyatining 2.7-jadvaldagi ma'lumotlari bo'yicha  $f^0 = (1; 1; 1.2; 1; 1.1; 1.5)$  bo'ladi.

2-bosqich. Masalaning yechimi

$$\Phi(x) = \rho(f(x), \tilde{f}) \rightarrow \min_{x^i \in M_p}$$

$\Phi(x)$  asosiy mezon sifatida tanlab olinadi:

$$\Phi(x) = \sum_{i=1}^5 |f_i(x) - f_i^0|$$

Buning natijasida:

$$\Phi(x^2) = 11211,2;$$

$$\Phi(x^4) = 9618;$$

$$\Phi(x^7) = 15221,5;$$

$$\Phi(x^8) = 15881,1;$$

$$\Phi(x^9) = 12684,8;$$

$$\Phi(x^{10}) = 10303,4.$$

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 1-masalaning yechimi  $x^4$  hisoblanadi.

3-bosqich. Ushbu nuqtada ( $x^4$ ) vektor kriteriyasining hisoblangan qiymati yotadi:

$$f(x^4) = (985,6; 26,6; 3,5; 1; 8606,3)$$

Aksariyat tadqiqotlardan ma'lumki, ikkinchi bosqichda qaror qabul qilish nuqtai nazaridan Pareto to'plamida eng optimal variantlarni aniqlash amalga oshiriladi. Agar qaror qabul qilishda belgilangan parametrlarga olingan natijalar to'g'ri kelmasa, u qiyosiy mezonlarning ahamiyatini hisobga olish kerak.

$$w = \{0,6;0,2;0,1;0,005;0,005\}$$

1-vektor shaklidan foydalanib vaznli o'rtacha  $w$  vektorni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Phi(x) = \sum_{i=1}^5 w_i |f_i(x) - f_i^0|$$

Ekonometrik tadqiqotning navbatdagi qismida ikkinchi bosqichdagi amallardan foydalangan holda  $M_p$  nuqtadagi mezonning qiymatlarini hisoblaymiz:

$$\Phi(x^2) = 1195,66;$$

$$\Phi(x^8) = 1693,06;$$

$$\Phi(x^4) = 1026,39;$$

$$\Phi(x^9) = 1352,35;$$

$$\Phi(x^7) = 1622,39;$$

$$\Phi(x^{10}) = 1098,96.$$

Ushbu holatda optimal yechim  $x^4$  variant hisoblanadi. Albatta, mazkur variant uchun  $f_1, f_2$  mezonlarining eng past qiymatlari bilan tavsiflanadi, bu esa mezonlarning berilgan qiyosiy ahamiyatiga mos keladi.  $x^4$  varianti uchun yangi hisoblangan vektor mezonining qiymati quyidagiga teng:

$$f(x^4) = (985,6;26,6;3,5;1;8606,3)$$

Shunday qilib, qiyosiy mezonlarning ahamiyatini o'zgartirish va kenglikdagi nuqtalar uchun "ideal" mezonlarni tanlash hamda o'rganilayotgan aniq tizimga qarab, interaktiv jarayonlar vositasida  $M_p$  samarali echimlarni ajratish yo'li bilan samarali qaror qabul qilish uchun eng maqbul variant taqdim etish mumkin.

Mamlakatimizning eng yirik aksiyadorlik jamiyatlaridan biri bo'lgan, Toshkent viloyati, Olmaliq tumanida joylashgan, "Olmaliq Kon-Metallurgiya Kombinati" aksiyadorlik jamiyatining so'ngi bir necha yillarda erishgan moliyaviy natijalarini tahlil qilish orqali, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy taminotini mustahkamlashga doir tahliliy xulosa va takliflar shakillantirishimiz mumkin.

Respublikamizda konchilik va metallurgiya sanoati yildan yilga rivojlanib bormoqda. 36 000 nafardan ortiq konchi-metallurgni birlashtirgan, O'zbekiston rangli metallurgiyasining bayroqdori Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 40 dan oshiq millat va elat vakillari bo'lgan konchi-metallurqlar mehnat qilishadi. O'zining 70 yildan ortiq tarixi davomida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan "Olmaliq KMK" AJ O'zbekistondagi eng yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lib, uning ishlab chiqarish quvvati Toshkent, Jizzax, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan mis-molibden, qo'rg'oshin- rux, oltin va kumush konlariga asoslanadi. Kombinatda ishlab chiqarilayotgan oltin va kumush London qimmatbaho metallar birjasining sifat belgisiga, ya'ni "Yaxshi etkazib beruvchi" maqomiga ega. Mis ishlab chiqarish jarayonida sifat tizimi menejmenti joriy etilib, unga Xalqaro muvofiqlik sertifikatini olingan. Ushbu muvofiqlik sertifikatini kombinatning Jizzaxdagi sement ishlab chiqarish jarayoniga ham berilgan.

Metallurqlar, konchilar va qimmatbaho metall qazib olish sohasining yetuk olimlari ishtirokida ekspertlar guruhi tashkil etilgan bo'lib, ular tomonidan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatini uzoq muddatda modernizasiya qilish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Dasturda qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish va qayta ishlashga ilg'or xorijiy tajribani joriy qilish ko'zda tutilgan.

**“Olmaliq Kon-Metallurgiya Kombinati” aksiyadorlik jamiyati asosiy  
moliyaviy faoliyat dinamikasi (milliard o‘zbek so‘mida).**

<b>Ko‘rsatkichlar nomlanishi</b>	<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>	<b>2024-yil (30-iyun holatiga)</b>
Mahsulot sotishdan sof tushum	23,223	30,789	30,502	31,048	16,108
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	35.3	30.4	(1)	1.6	8
Sotish xarajatlari	(7,912)	(10,570)	(12,826)	(12,653)	(6,296)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	12	33.6	21	(1)	5
Yalpi foyda	15,311	20,218	17,676	18,396	9,812
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	42	32	(13)	4	10
Davr xarajatlari	(5,200)	(6,084)	(5,992)	(6,140)	(3,181)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	21	17	(2)	2	11
Operatsion daromad (foyda)	10,251	14,355	12,023	12,782	7,489
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	53	40	(16)	6	21
Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda	336	1,241	2,872	1,934	968
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(39)	370	232	(33)	8
Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar	(1,062)	(1,664)	(3,524)	(3,735)	(2,813)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(23)	57	212	6	84
Soliq to‘langunga qadar foyda	9,525	13,932	11,352	10,981	5,644
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	62	46	(19)	(4)	1.5
Foyda solig‘i	(5,580)	(8,572)	(4,679)	(4,270)	(2,037)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	59.6	53	(46)	(9)	0.5
Sof foyda	3,945	5,360	6,673	6,711	3,608
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	65	35.8	24.5	0.5	2

Bugungi hisob-kitoblarga ko‘ra, ushbu dasturni tatbiq etish uchun 502 million dollardan ortiq mablag‘ yo‘naltiriladi. Bu esa yilga mis ishlab chiqarish hajmini 109 ming tonnadan 148 ming tonnagacha, rux metallini ishlab chiqarishni 78 ming tonnadan 120 ming tonnagacha, oltingugurt kislotasi ishlab chiqarishni

qariyb ikki barobar - 845 ming tonnadan 1,6 million tonnagacha oshirish imkonini beradi. Qimmatbaho va nodir metallarni qazib olish hamda qayta ishlash avvalgi yillarga nisbatan 1,3 martaga ortadi.

Mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromad 1,5 barobarga ortib, 12 trillion so'mga etadi. Davlat byudjetiga tushumlar hajmi ham 1,4 barobarga ortib, 5 trillion so'mdan ortadi. Kombinatning sof foydasi ham 1,4 barobarga ortib, 1,6 trillion so'mni tashkil qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda yillik quvvati 160 million tonna rudani qayta ishlashga mo'ljallangan "Yoshlik I" konini o'zlashtirish investitsiya loyihasi shiddat bilan amalga oshirilmoqda. "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ aksiyadorlari reestri ma'lumotlariga ko'ra jamiyat ustav fondi - 2 121 961 761 088 so'm. Aksiyaning nominal qiymati - 3 914 so'm. Chiqarilgan aksiyalar soni - 542 146 592 ta, ulardan, imtiyozli aksiyalar - 8 998 232 dona, oddiy aksiyalar - 533 148 360 dona.

Kompaniya 2023-yilda mahsulot sotishdan sof daromad ko'rsatkichini 29,843 mlrdni prognoz qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil yakunida ortig'i bilan 31,048 mlrdga teng bo'lgan. Sof foyda bo'yicha 19.3% ortiqcha bajarilish qayd etilgan. Bu tannarxni kamaytirish yoki xarajatlarni samarali boshqarish natijasida erishilgan deb baholash mumkin. Foyda ko'rsatkichining bunday yuqori darajada o'sishi aksiyadorlar uchun ijobiy holat hisoblanadi. Tannarxning kutilgan darajadan 12% ga kamroq bo'lishi ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishga erishilganini ko'rsatadi. Bu sof foydaga ijobiy ta'sir qilgan.

Moliyaviy mustaqillik koeffisienti kompaniyaning qarz mablag'lariga nisbatan o'z mablag'laridan foydalanishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Xorijiy valyutaga bo'lgan bog'liqlik kutilganidan sezilarli darajada past. Bu valyuta kurslarining o'zgarishidan kelib chiqadigan moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytiradi. Umumiy ko'rsatkichlarning barchasi asosida kompaniyaning moliyaviy samaradorligi 26.4% ga prognozdan oshgan. Bu kompaniyaning 2023-yilda umumiy faoliyat samaradorligi yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, aksiyadorlik jamiyati o'zining moliyaviy ta'minotini yanada mustahkamlash va moliyaviy resurslar rentabiligini optimallashtirishi uchun xarajatlarni kamaytirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikasiya qilishi, bozorlarni kengaytirish va xorijiy savdo hajmini oshirish yo'nalishida strategiya ishlab chiqishi, hamda Mahalliyashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni davom ettirish zarur deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sektorida o'zining sement ishlab chiqarishi bo'yicha, hamda eng faol moliyaviy ko'rsatkichlariga ega bo'lib kelayotgan etakchi aksiyadorlik jamiyati hisoblangan, "QIZILQUMSEMENT" aksiyadorlik jamiyatini moliyaviy tahlil amaliyotini o'tkazamiz.

Korxona Navoiy shahridan janubi-g'arbda 8 km uzoqlikda va Toshkent-Buxoro temir yo'l liniyasidan janubda 3 km uzoqlikda joylashgan.

**“QIZILQUMSEMENT” aksiyadorlik jamiyati asosiy moliyaviy  
ko‘rsatkichlar dinamikasi (milliard o‘zbek so‘mida).**

<b>Ko‘rsatkichlar nomlanishi</b>	<b>2020-yil</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>	<b>2024-yil (30-iyun holatiga)</b>
Mahsulot sotishdan sof tushum	2,221	1,907	1,723	1,797	697
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(19.5)	(15)	(10)	4	24
Sotish xarajatlari	(1,234)	(1,197)	(1,084)	(986)	(513)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(6)	(4)	(10)	(10)	4
Yalpi foyda	987	710	638	810	184
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(32)	(29)	(11)	27	52
Davr xarajatlar	(345)	(388)	(264)	(320)	(186)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	7	12	(32)	21	46.5
Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar	22	23	10	9	11
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	2.5	3	(59)	(6)	344
Operatsion daromad	664	345	383	499	8
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(27.5)	(51)	11	30.6	(97)
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar	95	72	108	94	4
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(29)	(25)	50.7	(13)	(3)
Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar	(14)	(116)	(3.5)	(9)	(1)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(53.6)	892	(97)	252	(98)
Soliq to‘langunga qadar daromad	745	300	359	526	1
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(26.5)	(60)	20	46.5	(99)
Foyda solig‘i	(155)	(73.5)	(60)	(57)	(0.5)
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(34.5)	(47)	(19.2)	(6)	1,321
Sof foyda	590	227	299	470	0.5
O‘tgan yilga nisbatan o‘shish (kamayish, % da)	(46.5)	(62)	32	56.8	(99)

Bugungi kunda “QIZILQUMSEMENT” AJ sement ishlab chiqarish bo‘yicha ilg‘or texnologiya, texnologik jarayonni yuqori darajada

avtomatlashtirishga ega zamonaviy texnologik asbob-uskunalaridan foydalanadigan korxona hisoblanadi. Jamiyat o'z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- qadoqlangan sement va marmar plitalarni ishlab chiqarish va sotish;
- xalq iste'moli mollarni ishlab chiqarish va sotish;
- tijorat faoliyati, tashqi iqtisodiy faoliyat;
- avto transport xizmatlari va ishlari;
- qurilish-montaj, ta'mirlash faoliyati;
- eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish, marketing va lizing ishlarini olib borish;

- topografiya, geologiya, geodeziya va marksheyder ishlarini amalga oshirish va xizmatlarini ko'rsatish;

- hamma turdagi foydali qazilmalar yuzasidan geologiya – razvedka ishlarini olib borish, hamda loyiha-smeta hujjatlarini tuzish;

- foydali qazilma joylarini o'zlashtirish, hamda texnik loyiha tuzish;

- tovar mahsuloti olingunga qadar foydali qazilmalarni qayta ishlash;

- jamiyat yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlaridan tashqari o'ziga qarashli bo'linmalar, kompaniyalar ishini yaxshilash hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa ishlarni ham bajarishi mumkin.

5-jadvalda ko'rinib turiptiki, mahsulot sotishdan sof tushum 2020-yilda 2,221 mlrd so'm, 2021-yilda 1,907 mlrd so'm, 2022-yilda 1,723 mlrd so'm bo'lib, 2023-yilda 1,797 mlrd so'mni tashkil etgan. 2020-yildan 2022-yilgacha tushum kamaygan (19.5% va 10%). 2023-yilda esa 4% ga o'sish qayd etilgan. 2024-yil 30-iyun holatida tushum 697 mlrd so'm bo'lib, bu yil oxiriga prognozlashda tushum kamayishi ehtimolini bildiradi.

Bu ko'rsatkich bozor talabining pasayishi, narxlar ta'siri yoki ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq ishlamasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sotish xarajatlari esa, 2020-yilda (1,234 mlrd so'm), 2021-yilda (1,197 mlrd so'm), 2022-yilda (1,084 mlrd so'm), 2023-yilda (986 mlrd so'm). Xarajatlar izchil ravishda kamayib bormoqda. 2024-yil 6 oylik ko'rsatkich esa (513 mlrd so'm). Sotish xarajatlari kamayishi samarali xarajat boshqaruvining belgisi hisoblanadi. Yalpi foyda 2020-yilda 987 mlrd so'm, 2021-yilda 710 mlrd so'm, 2022-yilda 638 mlrd so'm, 2023-yilda 810 mlrd so'm. Yalpi foyda 2021-yilgacha kamayib, 2023-yilda 27% ga o'sish qayd etilgan. 2024-yil 30-iyun holatida 184 mlrd so'm, bu pasayishni ko'rsatadi. Yalpi foyda o'sib borgan bo'lsa ham, 2024-yil ko'rsatkichlari keskin pasaygan. Tannarxni nazorat qilish va samaradorlikni oshirish kerak. Davr xarajatlari 2020-yilda (345 mlrd so'm), 2021-yilda (388 mlrd so'm), 2022-yilda (264 mlrd so'm), 2023-yilda (320 mlrd so'm). Xarajatlar 2022-yilda kamaygan bo'lsa-da, 2023-yilda 21% ga o'sgan. Operatsion daromad 2020-yilda 664 mlrd so'm, 2021-yilda 345 mlrd so'm, 2022-yilda 383 mlrd so'm, 2023-yilda 499 mlrd so'm. 2023-yilda operatsion daromad 30% ga o'sib, ijobiy natija ko'rsatgan. Moliyaviy faoliyatdan olinayotgan daromadlarni oshirish, qarz majburiyatlarini kamaytirish kerak. Sof foydaning kamayishi kompaniyaning samaradorligini pasaytiradi. Xarajatlarni kamaytirish va samarali soliq rejasini tuzish zarur. Umumiy xulosa va tavsiyalar sifatida ishlab chiqarish samaradorligini

oshirish, tannarxni nazorat qilish, eksport bozorlarini kengaytirish, xarajatlarni optimallashtirish choralari ko'rish zarur deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning **“Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy ta'minotini mustahkamlash va samaradorligini oshirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobda moliyaviy ta'minotni samarali boshqarishga doir xorijiy davlatlar tajribasi va ulardan foydalanish imkoniyatlari hususan iqtisodiyoti rivojlangan davlatlardagi kompaniyalarda moliyaviy strategiyalarni amaliyotga tadbiq etish mexanizmi va asosiy xususiyatlari, moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish kabilar o'rganilgan. Shuningdek, moliyaviy ta'minotni boshqarishda o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirishga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Kompaniyalar moliyaviy ta'minotini boshqarish xususan kapital tuzilishi va tarkibini samarali shakllantirish boshqaruv organlari oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi. Xalqaro amaliyot tajribalarini kuzatar ekanmiz, ayniqsa bugungi tashqi geosiyosiy muhitning noaniqligi sharoitida kapital manbalarini samarali boshqarishga doir qarorlar qabul qilish har doimgidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda Yevropa ittifoqi davlatlarida kichik va o'rta kompaniyalar faoliyatini moliyalashtirishning korporativ turlari mavjud bo'lib, bu alohida a'zo davlatlarning mablag'lari yoki birgalikdagi shakllantirilgan jamg'armalar hisobidan moliyalashtiriladigan mablag'lar ham bo'lishi mumkin. EI mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan har qanday kompaniyalar ishlab chiqarish hajmi va faoliyat yo'nalishlaridan qat'iy nazar mazkur moliyalashtirish turlaridan foydalanish maqsadida ariza topshirishlari mumkin. Bunda asosiy moliyalashtirish turlari sifatida kreditlar va venchur moliyalashtirish yetakchi o'rinni egallaydi.

Umuman olganda Yevropa Ittifoqi tomonidan kompaniyalar faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi muhim jihatlarini alohida qayd etishimiz mumkin:

moliyalashtirish imkoniyatlari keng: kreditlar, mikrokreditlar, kafolatlar va venchur kapitali;

Yevropa ittifoqi mablag'larini ajratish to'g'risidagi qaror mahalliy moliya institutlariga (banklar, “biznes-farishtalar”, venchur fondlar va boshqalar) tegishli.

aniq moliyalashtirish shartlari - miqdori, muddati, foiz stavkasi va to'lovlar - moliya institutlari tomonidan belgilanadi.

kompaniya tomonidan kredit tashkilotlaridan ularning qarori haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bu esa kompaniyaga moliyaviy holati va imkoniyatlarini yaxshiroq baholashga yordam beradi, shuningdek, kompaniya tomonidan berilgan ariza rad etiladigan bo'lsa, kelajakda moliyaviy barqarorlik indikatorlarini yaxshilagan holda kelgusida moliyalashtirish imkoniyatini oshirishlari mumkin.

Yevropa ittifoqi tomonidan a'zo mamlakatlarning kompaniyalariga quyidagi shartlar va dasturlar asosida mablag'lar ajratishni nazarda tutadi.

COSME dasturi - kichik va o'rta biznes uchun 150000 yevrogacha bo'lgan kreditlar;

InnovFin dasturi - innovatsion kompaniyalar uchun kreditlar va kafolatlar, shuningdek, tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish;



Creative Europe - Madaniy va ijodiy sohalardagi kichik biznes uchun kreditlar;

Bandlik va ijtimoiy innovatsiyalar dasturi (EaSI) - mikrofirmalar va mikrofirma ochishni xohlovchi zaif qatlamlar uchun 25000 yevrogacha kreditlar va ijtimoiy kompaniyalar uchun 500000 yevrogacha investitsiyalar;

Yevropa strukturaviy va investitsiya fondi (ESIF) - kompaniyalar uchun kreditlar, kafolatlar, aksiyadorlik kapitali yoki moliyaviy yordam;

Yevropa investitsiya banki va Yevropa investitsiya fondi - biznes kreditlari, mikromoliya, kafolatlar va ventur kapitali.

Germaniyada faoliyat yuritayotgan banklari atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim tozalagini ta'minlash maqsadlarida ESG (ESG barqaror biznes me'zonlari sifatida "atrof muhitni ijtimoiy boshqarish" degan ma'noni anglatadi) risklarni boshqarish bilan birga iqlim o'zgarishlari bo'yicha "Parij bitimi"ga teng huquqli a'zolaridan biri sanaladi. Tijorat banklari iqtisodiyotda qo'shimcha qiymatni yaratish bilan birga asosiy ish beruvchi moliya institutlar qatoriga kiradi. 2023 yilning yakunlariga ko'ra Germaniyada banklarning iqtisodiyotda yaratgan qo'shimcha qiymati 76 mlrd. yevroni tashkil etgan bo'lsa, bank sektorida faoliyat yuritayotgan hodimlarning soni 535000 nafarni tashkil etmoqda.

Tijorat banklari tomonidan Germaniyada faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 1,1 trillion. yevro miqdorida kreditlar ajratilgan. E'tiborli jihat bank kreditlarining 80 foizdan ko'proq qismi korporativ qarz instrumentlari ko'rinishida ekanligi hisoblanadi.

Shu bilan birga nemis eksportining 90 foizga yaqin qismi aynan xususiy tijorat banklari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi hamda rag'batlantiriladi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, bugungi kunda umuman Yevropa ittifoqi davlatlarida moliyalashtirishning asosiy qismi yashil moliyalashtirishga qaratilmoqd. Shundan kelib chiqqan holda Germaniyada ham ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Birgina 2022-yilning yakunlariga ko'ra chiqarilgan yashil obligatsiyalar xajmi 84 mlrd.evroni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bo'yicha OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ga a'zo davlatlar orasida eng yuqori o'rinda hisoblanadi. Eksportni qo'llab-quvvatlashda bo'lgani singari mazkur yo'nalishni moliyalashtirishda ham xususiy banklar asosiy sub'ekt bo'lib 95% chiqarilgan yashil obligatsiyalarning ulushi ularning hissasiga to'g'ri keladi.

Yaponiyada kompaniyalar faoliyatini moliyalashtirishning ikki xil usuli keng tarqalgan bo'lib, bularning birinchisi davlat tomonidan tartibga solinadigan amaliyot bo'lsa, ikkinchisi xususiy moliyaviy sektor tomonidan amalga oshiriladi. Yaponiyada davlat tomonidan korporativ tuzilmalar, xususan kichik va o'rta biznes sub'ektlari, startaplarni moliyalashtirdagi muhim moliyaviy muassasalardan biri Yaponiya moliyaviy korporatsiyasi hisoblanadi.

"Yaponiya moliya korporatsiyasi 2008-yil 1-oktyabrda Yaponiya moliya korporatsiyasi to'g'risidagi qonun qabul qilinishi bilan tashkil etilgan. Ushbu Qonun to'rtta siyosiy moliya institutining birlashishiga olib keldi, xususan:

Hayotni moliyalashtirish milliy korporatsiyasi (NLFC);

Qishloq, o'rmon va baliqchilikni moliyalashtirish korporatsiyasi (AFC);

Yaponiya kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish korporatsiyasi (JASME);

Yaponiya xalqaro hamkorlik banki xalqaro moliyaviy operatsiyalari (JBIC).  
2012-yil aprel oyida Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Bu Yaponiya xalqaro hamkorlik bankining (JBIC) JFCdan ajralib chiqishiga olib keldi hamda o'sha davrdan buyon JBIC mustaqil tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatmoqda".

## 6-jadval

### Yaponiya moliya korporatsiyasi tomonidan kichik biznes va mikrokorxonalarni moliyalashtirishning asosiy shartlari va miqdorlari<sup>8</sup>

<i>Umumiy kreditlar</i>		
Talablar		Biznes soha vakillari uchun
Moliyalashtirish miqdorlari	Ta'minlanmagan kreditlar	48 million iena
	Kafolatlangan shartnomalar	72 million iena (shundan 48 million iena maxsus asbob-uskunalar sotib olish uchun)
Qoplash muddati	Asosiy vositalar fondi	10 yilgacha (alohida qo'shimcha shartlar bo'yicha 20 yilgacha)
	Aylanma kapital	7 yilgacha
<i>Maxsus kreditlar*</i>		
Talablar		Yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik uchun
Moliyalashtirish miqdorlari	Ta'minlanmagan kreditlar	32 million iena
	Kafolatlangan shartnomalar	44 million iena (shundan 34 million iena aylanma kapital uchun)
Qoplash muddati	Asosiy vositalar fondi	20 yilgacha
	Aylanma kapital	7 yoki 15 yilgacha
<i>Salomatlik krediti</i>		
Talablar		Inson salomatligi va gigienasi bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun
Moliyalashtirish miqdorlari	Ta'minlanmagan kreditlar	48 million iena
	Kafolatlangan shartnomalar	72 milliondan 480 million ienagacha (faoliyat hajmi va sohasi bo'yicha)
Qoplash muddati	Asosiy vositalar fondi	13 yilgacha
	Aylanma kapital	-

\*Faoliyatni turlaridan kelib chiqqan holda ajratilgan mablag'lar miqdori va qoplash davri bo'yicha o'zgartishlar kiritilishi mumkin

Yaponiya moliya korporatsiyasi tomonidan kichik va o'rta biznes hamda mikrokorxonalarni moliyalashtirish maqsadida quyidagi uchta turdagi kreditlar ajratiladi (6-jadval):

“umumiy kreditlar” ko'plab biznes soha vakillari va fuqarolar uchun mo'ljallangan;

<sup>8</sup> <https://www.freee.co.jp/kb/kb-launch/japan-finance-corporation/#content1>

“maxsus kreditlar” aniq shartlar bajarilgan keyin belgilangan me’yorlar va miqdorlar asosida ajratiladigan kreditlar;

“inson salomatligi va gigienasi uchun kreditlar” insonlar salomatligi va gigienasi bilan shug’ullanadigan tadbirkorlik sub’ektlari uchun mo’ljallangan kreditlar.

Aytish kerakki, Yaponiya moliya korporatsiyasi milliy iqtisodiyotda nafaqat kichik biznes va mikrokorxonalarni qo’llab-quvvatlash balki xususiy moliya sektor faoliyatini har tomonlama rivojlantirishda muhim o’rin tutadi. Aksariyat kompaniyalar yoki startap loyihaga ega biznes vakillari tomonidan xususiy moliya tashkilotlariga murojaat qilinganda Yaponiya moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikdagi moliyalashtirishni amalga oshirishlari mumkin.


6-jadvalda keltirilgan ma’lumotlaridan ko’rish mumkinki, Yaponiya moliya korporatsiya tomonidan ajratiladigan mablag’lar bo’yicha talablar va shartlar xususiy tarmoq banklariga nisbatan yengilroq bo’lib, xususiy biznes va mikrokorxonalar uchun har tomonlama qulay hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida uzoq va o’rta muddatli moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishni tartibini “uch bosqich model” asosida amalga oshirish kerak, deb hisoblaymiz. Bundan birinchi bosqichda, kompaniya joriy holati tizimli tahlil qilinadi va monitoring ishlari amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda, kompaniya moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uning istiqbolli rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi.

Strategiyaning uchinchi bosqichida amalga oshirilgan islohotlarning natijalaridan kelib chiqqan holda biznseni istiqboldagi samaradorlik modeli ishlab chiqiladi (3-rasm). Rasm ma’lumotlaridan ko’rinadiki, o’rta va uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishning dastlabki bosqichida aksiyadorlik jamiyatining joriy moliyaviy holati tahlil qilinadi va tegishli hulosalar shakllanadi. Bunda birinchi navbatda tashqi muhitdagi o’zgarishlar va ularni aksiyadorlik jamiyatining soha va tarmoqlarga ta’sirini baholanadi.

Istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda bugungi kunda dolzarblik va ahamiyatliligi bo’yicha yuqorilab borayotgan tahlil turlari sifatida fundamental, texnik hamda sifati va miqdoriy tahlil usullarini alohida belgilash maqsadga muvofiq. Chunki moliyaviy natijalar va ko’rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil qilib aniq xulosalarni shakllantirishda ushbu tahlil usullari muhim ahamiyatga ega.

Kompaniyalar tomonidan tahlil usullari orqali olingan natijalardan kelib chiqqan holad amalga oshirilishi lozim bo’lgan islohotlarning aniq yo’nalishlari va maqsadlari belgilab olinadi. Bularni umumlashtirgan holda biz tomondan keltirilgan rasm ma’lumotlarida marketing tadqiqotlari sifatida aks ettirganmiz. Ta’kidlash lozimki, amalga oshirilgan birinchi bosqich natijalarining samaradorligini baholashda monitoring va ichki nazorat mexanizmi alohida o’ringa ega. Chunki strategiyada belgilangan vaziflarni qay darajada amalga oshirilgan yoki yo’qligiga doir xulosalar aynan ushbu bo’limda shakllantiriladi.



**3-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish jarayoni<sup>9</sup>**

Rasmda aksiyadorlik jamiyatlarida o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish jarayoni tasvirlangan. Rasmda jarayonlar asosiy bo'limlarga

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

bo'lingan va ularning o'zaro aloqasi ko'rsatilgan. Jarayonning asosiy bosqichlari quyidagilar hisblanadi:

1. Marketing tahlillari: Aksiyadorlik jamiyati va tashqi muhit o'rtasidagi bog'lanish orqali bozor tahlillari o'tkaziladi.

2. Kompaniyaning joriy holatini tahlil qilish va monitoring qilish: Kompaniyaning hozirgi holati va bozor sharoitlari baholanadi.

3. Rivojlantirish dasturlari:

Istiqbolli mahsulotlar tarkibi va ro'yxati (ishlab chiqarish strategiyalari).

Resurslardan foydalanishga oid strategiyalar.

Moliyaviy ta'minotga oid strategiyalar ishlab chiqiladi.

4. Istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish: Bu bosqichda ishlab chiqilgan strategiyalar asosida kelajak rivojlanish dasturlari yaratiladi.

Bu jarayonning yakuniy maqsadi - biznesni istiqboldagi samaradorlik modelini ishlab chiqish. Bu, o'z navbatida, kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga erishish uchun zaruriy strategiyalarni belgilaydi. Bu rasm kompaniya ichidagi va tashqi muhitdagi omillarni tahlil qilish orqali, istiqboldagi samaradorlik modelini ishlab chiqish jarayonini ko'rsatadi. Aksiyadorlik jamiyatining ichki omillari kompaniya samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari menejment samaradorligini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali strategik maqsadlarga erishishi mumkin.

Tashqi omillar aksiyadorlik jamiyatlari uchun imkoniyatlar va tahdidlar tug'diradi. Korporasiyalar doimiy monitoring va strategik tahlil orqali ushbu omillarga moslashishi kerak. Strategik rivojlantirish dasturlari kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Ichki va tashqi omillarni to'g'ri tahlil qilish, samarali strategiya ishlab chiqish va uni joriy etish zarur. Aksiyadorlik jamiyatlari o'rta va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish orqali raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin bo'ladi deb hisoblaymiz.

## XULOSA

Dissertasiya mavzusiga doir tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

1. Aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faoliyat samaradorligini ta'minlashda moliyaviy ta'minotni samarali boshqarish ham ilmiy ham amaliy nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega. Moliyaviy ta'minot samaradorligini oshirishga doir qarorlar qabul qilish barcha darajadagi korporativ boshqaruv sub'ektlarining zimmasidagi asosiy funksional vazifalardan biri bo'lib, istiqbolli strategiyalar ishlab chiqish va joriy faoliyatni tashkil etishda o'zaro tizimli munosabatlarni yo'lga qo'yish talab etiladi.

2. So'rovnomalar asosida aniqlandiki, 65 foiz aksiyadorlik jamiyatlari asosiy moliyaviy ta'minot manbai sifatida bank kreditlariga asosiy va ishonchli manba'a sifatida yondashadi, respondentlarning 15 foizi aksiyalar yordamida resurslar jalb qilishda qo'shimcha xarajatlar miqdorini yuqori ekanligi va investorlar tomonidan qiziqishning pastligi, 10 foiz respondentlarning fikriga ko'ra korporativ obligatsiyalar bo'yicha moliyaviy resurslar jalb qilishda kapital bozorida likvidlikni past ekanligi qolgan foizlar bo'yicha so'rovnomada ishtirok etganlarning fikriga ko'ra xorijiy valyutada kapital jalb qilishda yetarlicha axborotlarning mavjud emasligi va valyutadagi foiz stavkalar yuqori tebranishga ega ekanligini qayd etgan. Korporativ tuzilmalar uchun axrobotlar bazasini shakllantirish va yagona onlayn platformani yo'lga qo'yilishi xalqaro kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

3. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ obligatsiyalar emissiya qilish asosida moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini rag'batlantirish maqsadida nafaqat soliq imtiyozlari balki fond bozorida mazkur instrumentlarni sotish hajmini oshirish natijasida aylanma kapitalni to'ldirishga yo'naltiriladigan resurslarning foiz stavkalari bo'yicha imtiyozlarni joriy etish kerak. Mazkur amaliyotni joriy etilishi birgina "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida tomonidan qo'shimcha chiqariladigan korporativ obligatsiyalar hajmini yillik o'rtacha 25-30 foizgacha oshirish imkonini beradi.

4. Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ obligatsiyalar bozoridagi ishtirokini yanada oshirish maqsadida ular tomonidan joylashtiriladigan instrumentlar bo'yicha foiz stavkalarni tijorat banklarining depozitlar bo'yicha foizlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlari tomonidan joylashtirilayotgan korporativ obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkalarga yaqinlashtirish kerak. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xorijiy valyutadagi korporativ obligatsiyalarni chiqarish amaliyotini yo'lga qo'yilishi investorlar uchun valyuta kurslari bo'yicha yuzaga keladigan risklarni oldini olishga xizmat qiladi.

5. "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati investitsion loyihalari bo'yicha 2023-yilgacha amalga oshirilgan prognoz natijalari sof joriy qiymat, diskontlangan qiymati, rentabellik indeksi va ichki daromadlilik me'yorlari koeffisientlari Pareto tamoyillari asosida qarorlar qabul qilishning ilmiy yondashuvlari asoslab berildi. Ekonometrik tahlil natijalari jamiyat tomonidan kelgusida nafaqat asosiy ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha samaradorlikni ta'minlash balki portfel

investitsiyalarga asosiy e'tiborni qaratgan holda foyda miqdoridagi ulushini oshirib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotida investitsion qarorlar qabul qilishda ekonometrik tahlil instrumentlaridan keng foydalanish istiqbolli strategiyalarni samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

6. “Olmaliq KMK” AJ, va “QIZILQUMSEMENT” aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy tahlilida namoyon bo'lganidek, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobdorlik va hisob berish tizimi zaif. Hisobotlarning noto'g'ri yoki to'liq bo'lmashligi, moliyaviy faoliyatning samarasizligini aniqlash va tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Hamda, raqamli moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish darajasi pastligi, va uning oqibatida ba'zi moliyaviy jarayonlarning optimallashtirilmasdan qolib ketish holati kuzatilmoqda. Bu esa kompaniyalarning raqobatbardoshligini pasaytiradi va moliyaviy samaradorlikni cheklaydi. Bu kabi kamchiliklarga echim sifatida, ichki va tashqi audit jarayonlarini kuchaytirish orqali moliyaviy jarayonlarning shaffofligi va ishonchliligi oshirish, moliyaviy hisobot va boshqaruv bo'yicha mas'ul xodimlarning malakasini oshirish uchun doimiy treninglar va sertifikat siya dasturlarini joriy qilish, xodimlarning raqamli texnologiyalarga bo'lgan savodxonligini oshirish uchun treninglar va o'quv dasturlarni yo'lga qo'yish kabi yechimlar aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ta'minotini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

7. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ baholash amaliyotini yo'lga qo'yish, kapitalni shakllantirish va undan foydalanishdagi samaradorlik koeffisientlarni aniqlash, investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini xalqaro standartlar yoki xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan tavsiya etiladigan multiplikator koeffisientlaridan foydalanish borasida ayrim kamchilik va muammolar mavjud. Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tayyorlash va keng jamoatchilikka taqdim etish, ikkinchidan ko'plab multiplikator koeffisientlarini aniqlashdagi ayrim tarkibiy ko'rsatkichlarning milliy yagona baholash standartida keltirilgan uslubiyatda mavjud emasligi yoki to'liq ochib berilmaganligi, uchinchidan ayrim ekonometrik modellardan foydalanishda ishtirok etadigan omillarga doir ma'lumotlarning to'liq olish imkoniyatining yetishmasligi hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida bu kabi muammolarni bartaraf etilishi ularning investitsion jozibadorligini oshirish orqali xalqaro integrasiyalashuvini jaddalashtirishga xizmat qiladi.

8. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalar vositasida moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini takomillashtirishda dividend siyosatini samaradorligiga alohida ahamiyat qaratish zarur. Ayniqsa ustav kapitalida davlat ishtiroki yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan IPO operatsiyalarini amalga oshirishda keyinchalik olingan foydani aniq miqdorlari bo'yicha dividendga yo'naltiriladigan qismini qat'iy belgilanishi ular tomonidan joylashtirilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan daromadning minimal miqdorini kafolatlashga xizmat qiladi.

9. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyalashtirishning xalqaro amaliyot tajribalari ko'rsatishicha, iqtisodiyot tarmoq va sohalarini moliyalashtirishda xususiy moliya sektori ulushini yanada oshirish, startap va yangi loyihalarni moliyalashtirishda davlatning ishtirokini ta'minlash, yashil loyihalarni moliyalashtirishda qo'shimcha imtiyoz va rag'batlantirish amaliyotidan foydalanish, kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishda sub'ektlar ishtirokini minimallashtirish hamda "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish kabi jihatlardan milliy amaliyotda foydalanish moliyaviy ta'minot tizimini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019. I.16.01 ПО  
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**АБДУБОКИЕВ МУХАММАД ШАРОФИТДИНОВИЧ**

**ПУТИ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ ОБЕСПЕЧЕНИЕМ  
АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ И ПОВЫШЕНИЯ ИХ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
**диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.2. PhD/Iqt4051.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации выполнен на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) и размещён на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Бурханов Актам Усманович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Худайкулов Хуршид Хуррамович**  
доктор экономических наук, профессор  
**Алладустов Рустам Джонмуротович**  
кандидат философских наук по экономическим наукам (PhD)

**Ведущая организация:** **Ташкентский международный университет Кимё**

Защита диссертации состоится на заседании единовременного научного совета по присуждению ученых степеней № DSs.03/10.12.2019.I.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_ часов. Адрес: 100003, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано за номером \_\_\_\_\_). Адрес: 100003, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72; Факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года  
(Протокол реестра № \_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года)

**С.У. Мехмонов**  
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

**У.В. Гафуров**  
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

**С.К. Худойкулов**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В условиях острой концентерсии в мировой экономической и финансово-экономической глобализации спрос на инвестиции непрерывно растет. Исходя из этого, каждая корпоративная структура в развитии и развивающейся стране стремится решить вопросы финансового обеспечения не только за счет национального финансового рынка, но и привлекать капитал с международных финансовых рынков, расширяя при этом свою деятельность на международном уровне. Несмотря на экономико-политические проблемы, исходящие в мировую экономику в 2024 году, ведущим мировым компаниям удалось увеличить объемы финансирования и капитализации. А стоимость постоянных инвестиционных продуктов, включая облигации и фонды, выросла на 20 процентов и достигла 7 триллионов долларов США. Объем финансирования выпуска облигаций увеличился на 3 процента, достигнув 872 миллиардов долларов, а общая стоимость мирового рынка превысила 4 триллиона долларов. Безусловно, тенденции роста финансирования в основном обусловлены вкладом экономического развития стран. В настоящее время, в условиях сохранения неопределённости прогнозов на мировом рынке капитала, поиск альтернативных вариантов финансирования со стороны развивающихся стран и принятия решений об оптимальном использовании имеющихся финансовых ресурсов продолжают оставаться одной из актуальных задач.<sup>10</sup>

В международной практике вопрос оптимизации источников финансового обеспечения корпоративных структур, внедрения современных инструментов финансирования и развития рынка капитала на основе использования возможностей искусственного интеллекта для повышения эффективности финансовых ресурсов стал одной из главных тем многих финансовых экспертов и ведущих компаний мира. Сегодня, в условиях развивающихся процессов глобализации, международные финансовые рынки занимают особое место в финансировании деятельности компаний. Эффективное управление источниками финансового обеспечения компаниями остается одной из важных задач, обеспечивающих их будущую финансовую устойчивость. В этой связи такие вопросы, как совершенствование деятельности компаний на рынке ценных бумаг, широкое использование научных и инновационных подходов при выходе в ведущие инвестиционные секторы мирового рынка, внедрение новых и удобных методов финансирования, развитие финансовых отношений между государственными и корпоративными структурами, совершенствование практики прогнозирования на основе эконометрического анализа перспективных показателей эффективности финансовой деятельности, являются основными направлениями научных исследований.

---

<sup>10</sup>[https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024\\_overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_overview_ru.pdf)

